



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQ MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

**Atamirzayeva Ezoza**

Namangan davlat chet tillari instituti, katta o‘qituvchi (PhD)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining og‘zaki nutq malakalarini takomillashtirish metodikasi tahlil qilinadi. Xususan, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni yoritiladi. Tadqiqotda og‘zaki nutqni shakllantirish jarayonida fonetik, leksik va grammatik ko‘nikmalarni integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, talabalarning nutqiy faolligini oshirish, ularni real kommunikativ vaziyatlarga jalb etish hamda mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali metod va usullar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** og‘zaki nutq, nutqiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, chet tili o‘qitish, pedagogik texnologiyalar, nutqiy faollik.

## **МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА**

**Атамирзаева Эзоза**

Наманганский государственный институт иностранных языков, старший преподаватель (PhD)

### **Аннотация**

В данной статье анализируется методика совершенствования навыков устной речи у будущих учителей иностранного языка. В частности, освещается роль коммуникативного подхода, интерактивных методов и современных педагогических технологий в развитии речевой компетенции. Обосновывается необходимость интегрированного развития фонетических, лексических и грамматических навыков в процессе формирования устной речи. Также анализируются эффективные методы и приёмы, направленные на повышение речевой активности студентов, их вовлечение в реальные коммуникативные ситуации и развитие навыков самостоятельного выражения мыслей.

**Ключевые слова:** устная речь, речевая компетенция, коммуникативный подход, интерактивные методы, преподавание иностранного языка, педагогические технологии, речевая активность.

## **METHODOLOGY FOR IMPROVING ORAL SPEECH SKILLS OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS**

**Atamirzayeva Ezoza**

Namangan State Institute of Foreign Languages, Senior Lecturer (PhD)

### **Abstract**

This article analyzes the methodology for improving oral speech skills of future foreign language teachers. In particular, it highlights the role of the communicative approach, interactive methods, and modern pedagogical technologies in developing communicative competence. The study substantiates the necessity of integrating phonetic, lexical, and grammatical skills in the process of oral speech development. It also examines effective methods and techniques aimed at increasing students' speech activity, engaging them in real communicative situations, and developing their ability to express ideas independently.

**Keywords:** oral speech, communicative competence, communicative approach, interactive methods, foreign language teaching, pedagogical technologies, speech activity.

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tillarini o‘qitish jarayoni kommunikativ yondashuv asosida takomillashib borayotgan bir sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarning og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Chunki chet tilini o‘qitishda asosiy maqsad o‘quvchilarda tilni real muloqot vositasi sifatida qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu bevosita o‘qituvchining o‘z nutqiy mahorati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Og‘zaki nutq malakalari — bu fonetik to‘g‘rilik, leksik boylik, grammatik aniqlik hamda

nutqning mantiqiy va kommunikativ uyg'unligini o'z ichiga oluvchi murakkab kompetensiyadir. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ushbu malakalarni egallashi nafaqat ularning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, balki o'quvchilarda ham nutqiy kompetensiyani shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois og'zaki nutqni rivojlantirish metodikasini ilmiy asosda o'rganish va takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarning keng joriy etilishi og'zaki nutqni rivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalarning nutqiy faolligini oshirish, ularni real kommunikativ vaziyatlarga jalb etish hamda erkin fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirish hali ham muayyan metodik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Milliy ta'lim tendensiyasining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarorida o'z aksini topgan bo'lib, ularda qo'yilgan talablarga binoan oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarning mazmunini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish orqali dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash talab etiladi. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi jadal rivojlanayotgan ijtimoiy hayotda, kundalik va ilmiy sohalarida xalqaro miqyosda erkin faoliyat olib borishlari uchun chet tillarida nutqiy muloqot kompetentligini shakllantirishdan iborat.

Xorijiy tillarni nutqiy muloqot yondashuvi asosida o'rganish muammolari XX asrning boshlarida G'arbda N. Xomskiy, D. Xayms, M. Kanali kabi olimlar tomonidan o'rganila boshlangan. MDH davlatlarida bu muammo I. Zimnyaya, N. Gez, I. Passov kabi olimlar ishlarida keng tadqiq etilgan. O'tgan asrning 70-yillarida G'arb mamlakatlarida kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik nazariy asoslari R. Berintoft, D. Jiro, X. Krum, I. Bimlar tomonidan ishlab chiqildi. Til ta'limida nutqiy muloqot kompetensiyasini shakllantirish masalalari C. Chichilanova, E. Kudryavseva, T. Popova, N. Rotovalarning tadqiqot ishlarida o'rganib chiqilgan.

T. Popova o'z tadqiqotida "kompetensiya" va "kompetentlik" atamaları o'rtasidagi farqni ochib berish bilan birga, kommunikativ kompetensiyaning maqsadi va turlarini ilmiy asoslab, uning darajalarini guruhlariga ajratib ko'rsatib bergan [3].

Respublikamizda chet tillarni nutqiy muloqot yondashuvi asosida o'qitish ilk marta yetakchi metodist olimlar J. Jalolov [4], T. Sattorov [5] tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, olib borilgan tadqiqotda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammolari ustuvor vazifa sifatida qaralgan. Keyingi yillarda kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha F. Alimov [6], H. Tursunov [7]larning tadqiqot ishlari bajarilgan.

Kompetensiya va kompetentlik atamalariga tadqiqotchilar turlicha munosabat bildirganlar. Jumladan, J. Jalolov "kompetensiya tilni o'rganishga harakat qilmoq, til o'rganishga qobiliyatli bo'lmoq", deb ta'rif bergan bo'lsa [4], G. Selevko [8] "kompetensiya biror fanni o'qitish jarayonida shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning birligi, kompetentlik esa olingan bilimlar asosida shakllangan ko'nikma va malakalardan biror-bir faoliyatni bajarishda foydalana olish qobiliyatini o'z ichiga olishini e'tirof etadi", deb ta'kidlaydi.

Zamonaviy ta'limda "kompetensiya" atamasi "layoqatlilik", "ta'limga kompetensiyaviy yondashuv" esa "egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy hamda ijtimoiy faoliyatda amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim" deb tushunilmoqda.

Insonning shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga kirisha olishi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, har tomonlama bilimli bo'lishi uchun fanlarni o'qitishni integratsiyalash, jamiyatda o'z g'alar bilan muloqotga kirisha olishi uchun esa tilni mukammal o'zlashtirishi, muloqot qila olishi, ya'ni nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishi zarur. Shuning uchun kommunikativ kompetensiya barcha fanlarni o'qitish uchun tayanch kompetensiya vazifasini bajaradi. Shu sababdan chet tillarni integrativ yondashuv asosida o'qitish talabalarga turli fanlardan egallangan bilimlarni nutqiy faoliyatda — tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv vositasida o'z faoliyatida amaliy qo'llash malakalariga ega bo'lish va shu orqali nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

L. Binning fikriga ko'ra, nutqiy muloqot kompetensiyasi til o'rganishda nutq faoliyati turlaridan gapirish, tinglab tushunish, yozuv va o'qishni o'z ichiga oladi [9].

L. Ahmedova "nutqiy muloqot kompetensiyasi — til sohibi bilan chet tilda muloqot qilishni

amalga oshirish uchun tayyor bo'lishlik hamda maktab o'quvchilarining tili o'rganilayotgan mamlakatning tili va madaniyatini yaxshi anglagan holda o'z davlatini ham muloqot jarayonida tanishtira olish qobiliyatidir", deya ta'rif bergan [10].

N. Galskova va N. Gezlarning ta'rificha, nutqiy muloqot kompetensiyasi XX asrning 1970-yillaridan boshlab insonning kognitiv va shaxslararo tayanch nutqiy muloqot ko'nikmalari o'rtasidagi farqni aniqlashga bo'lgan harakat natijasida paydo bo'lgan [11].

Tadqiqotchilar tomonidan nutqiy muloqot kompetensiyasini tashkil etuvchi komponentlar ham turlicha talqin etilgan.

E. Passov nutqiy muloqot kompetensiyasini reseptiv va produktiv turlarga ajratgan [12].

N. Gez esa nutqiy muloqot kompetensiyasini lingvistik, metanutqiy muloqot, verbal, verbal-kognitiv kabi turlarga ajratgan.

Tilshunos olim T. Irisqulov kommunikativ kompetensiya lingvistik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalardan tarkib topadi hamda o'z tarkibida quyidagilarni qamrab oladi, deya ta'kidlaydi [13].  
Jumladan:

1. tilga oid materialni chuqur o'zlashtirish;
2. ijtimoiy-lingvistik omilkorlik;
3. maqsadga yo'naltirilgan omilkorlik.

Bildirilgan fikrlar nutqiy muloqot kompetensiyasiga nisbatan qarashlarning xilma-xilligini ko'rsatadi. Olimlarning nutqiy muloqot kompetensiyasiga bergan ta'rifidan quyidagi xulosalarni berish maqsadga muvofiq. Nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda lingvistik kompetensiya (compétence linguistique) — o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish; sotsiolingvistik kompetensiya (compétence sociolinguistique) — ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish; pragmatik kompetensiya (compétence pragmatique) — turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z hayajonlarini boshqarish; diskursiv kompetensiya (compétence discursive) — tilni mantiqiy va izchil ishlatish qobiliyati; sotsiomadaniy kompetensiya (compétence socioculturelle) — o'rganilayotgan til sohiblarining madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini va ijtimoiy muloqot qoidalarini tushunib, ularga moslashish komponentlari muhim farqlanadi.

Natijalar va muhokama. Til o'rgatishdan ko'zlangan asosiy maqsad kommunikatsiya orqali kognizant, ya'ni tilda bevosita va bilvosita muloqot qila oladigan mutaxassisni tayyorlashdan iborat. L. Iliyeva "har qanday muloqotning yuzaga kelishi kommunikatsiyaga kirishuvchi uchun sabab, asos bo'lishi kerak. Til muloqoti asosan nutq faoliyati turlari — tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishning o'zaro aloqasisiz yuzaga chiqa olmaydi" [14], deb hisoblaydi.

Gapirish nutq faoliyati turi sifatida mustaqil, yakka o'zi qo'llanmaydi, aksincha, boshqa nutq faoliyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi. Bu haqida A.A. Leontyev ham quyidagi fikrni ta'kidlaydi: "Inson birgina nutq faoliyati bilan hech narsa sodir eta olmaydi" [15].

Gapirish faoliyat turi (production orale) og'zaki fikr bayon etish turi bo'lib, bunda fikr bayon etiladi. J. Jalolov gapirish faoliyat turiga shunday ta'rif beradi: "Gapirish — biror fikrni izhor etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va talaffuz hodisalarini qo'llashdan iborat" [4].

Chet tilda biror narsa haqida gapirish har doim ma'lum bir nutqiy muloqot maqsadi bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun birinchi chet tilda dialogik nutqni o'rgatish muloqotning asosiy funksiyalari doirasida nutqiy muloqot vazifalarini bajarishni bosqichma-bosqich o'rgatish orqali amalga oshiriladi: informatsion (masalan, biror narsani tushuntirish), tartibga soluvchi (suhbatdoshga ta'sir qilish — buyruq, maslahat va boshqalarni ifoda etish), hissiy-baholovchi (shubha, rad etish va boshqalarni ifoda etish), odo-axloq (jamiyatda qabul qilingan aloqa shakllari — kechirim so'rash, tabriklash, so'rov va boshqalarni amalga oshirish) kabi.

Talabalarda gapirishda uchraydigan qiyinchiliklardan eng dolzarblaridan biri til muhitining yaratilmaganligi bo'lsa, yana biri ulardagi tortinchoqlik, xato gapirib qo'yishdan qo'rqish kabi psixologik qiyinchiliklardir. Bunday psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun gapirishga undovchi omil, ya'ni motivatsiyani uyg'otish zarur. Buning uchun gapirishga tanlangan mavzular o'ta murakkab bo'lmasligi, talabaning yoshiga mos bo'lishi, qiziqarli va hayotiy mavzularni qamrab olishi muhim.

Quyida fransuz tilida gapirish jarayonida yo'l qo'yiladigan ayrim qiyinchiliklarni va ayni paytda ularni bartaraf etish imkoniyatlarini ko'rsatib o'tamiz:

1. Grammatik xatolar: talabalar fe'lining zamon shakllarini o'rganishda, ayniqsa Passé composé va Imparfait kabi zamonlarni farqlashda qiyinchiliklarga uchraydilar. Masalan, tu va vous (sen va siz) shakllarining noto'g'ri ishlatilishi ijtimoiy xatolarga olib kelishi mumkin. Grammatik

ko'nikmalarni rivojlantirish uchun talabalarga har xil zamonlardagi fe'l shakllarini ishlatib, oddiy dialoglar yaratish, kichik guruhlarda hikoyalar tuzish kabi mashqlar tavsiya etiladi [16].

Misol:

— Qu'as-tu fait hier? (Kecha nima qilding?)

— J'ai étudié et j'ai regardé un film. (Men o'qidim va kino ko'rdim.)

2. Leksik muammolar: talabalar nutqida ingliz tiliga o'xshash so'zlar noto'g'ri ishlatiladi. Masalan, *actuellement* (hozirda) va inglizcha *actually* (aslida) so'zlari ko'pincha chalkashtiriladi.

Fransuz tilida leksik birliklarning cheklanganligi sababli talabalar so'z boyligini amaliyotda ishlatishda qiynalishadi. Fransuz tili darslarida leksikani kengaytirish uchun talabalarga o'zlari yaxshi bilgan so'zlar asosida gaplar tuzish topshirig'i beriladi.

Misol:

— Je mange une pomme. (Men olma yeyapman.)

— Je bois du café. (Men qahva ichyapman.)

Ekstralingvistik interferension qiyinchiliklar, ya'ni vaziyatli (situativ) holatni yaratish, gapirishning nimagadir qaratilishi va mimika, imo-ishoralarning (*gestes*) qo'llanilishi ham muhim ahamiyatga ega. Bunga ko'rgan pantomimani gapirish, vaziyatni anglash va uni do'stiga gapirish, rasmni tasvirlash kabi vazifalar kiradi.

3. Chet tilda gapirishda o'ziga ishonchsizlik (psixologik qiyinchilik): talabalar noto'g'ri talaffuz yoki grammatik xatolardan qo'rqib, gapirishdan o'zini tiyadi. Psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun gapirishga undovchi omil, ya'ni motivatsiyani uyg'otish zarur. Buning uchun tanlangan mavzular murakkab bo'lmasligi, talabani yoshi va qiziqishiga mos bo'lishi lozim. Bu muammolar talabalarni kichik guruhlarga bo'lib, oddiy mavzular bo'yicha suhbatlashtirish orqali bartaraf etiladi [17]. Masalan: dam olish kunlari haqida gapirish (*Mon jour de repos*), sevimli taomlari haqida bahs qilish (*Mon plat préféré*) kabi.

Fransuz tilini chet til sifatida o'rganuvchilarning nutq faoliyati turlarining ba'zilarini yaxshi o'zlashtirmaganligi nutqiy aktning sekin yuz berishiga yoki to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Shu bois talabalarda fransuz tilini o'z ona tillari darajasida o'zlashtirishlariga erishishda nutq faoliyati turlarini mukammal o'rgatish hamda nutq aktining uzluksizligini ta'minlashga erishish nihoyatda muhim.

Fransuz tili amaliy mashg'ulotlarida amaldagi kabi nutq faoliyatining ayrim turlarini — tinglab tushunish va gapirish yoki o'qish va yozuv tarzida u yoki bu turini alohida o'rgatish talabalarning chet tildagi nutqiy ko'nikmalarini yetarli darajaga olib chiqmaydi. Ta'lim jarayonida ushbu ko'nikmalarni amaliy integratsiyalab qo'llash, talabalarda uchraydigan lingvistik, ekstralingvistik, psixologik qiyinchiliklarni yengish uchun tavsiyaviy mashqlarni ko'plab bajartirib borish talabalarda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishni bir vaqtning o'zida erkin qo'llay olish, biridan ikkinchisiga to'xtamasdan osonlik bilan o'tish malakalarini shakllantiradi.

Xulosa. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini takomillashtirish ta'lim jarayonining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Og'zaki nutq kompetensiyasining rivojlanishi o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish bilan birga, uning kelajakdagi pedagogik faoliyatida samarali kommunikatsiyani ta'minlashga xizmat qiladi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash talabalarning nutqiy faolligini oshirish, ularni real kommunikativ vaziyatlarga jalb etish hamda mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, fonetik, leksik va grammatik ko'nikmalarni integratsiyalashgan holda rivojlantirish og'zaki nutqning sifatini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot natijalari talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish, motivatsiyasini oshirish hamda ta'lim jarayonida erkin va qulay kommunikativ muhit yaratish zarurligini ko'rsatdi. Bu esa o'qituvchining fasilitator sifatidagi rolini kuchaytiradi va ta'lim samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, bo'lajak chet tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini takomillashtirish uchun innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodlarni tizimli ravishda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy va amaliy ishlar kelajakda sifatli til ta'limini ta'minlash va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori. Xorijiy tillarni o'rganishni

- ommalashtirish faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2021-yil 19-may.
3. Popova T. Kommunikativ kompetensiya: nazariya va amaliyot. – Moskva: Prosveshchenie, 2005. – 256 s.
  4. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 256 b.
  5. Sattorov T. Chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. – 198 b.
  6. Alimov F. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – 220 b.
  7. Tursunov H. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 210 b.
  8. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. – Москва: Народное образование, 1998. – 256 с.
  9. Бим И. Л. Теория и практика обучения иностранным языкам. – Москва: Просвещение, 1988. – 256 с.
  10. Ahmedova L. Chet tillarni o'qitishda kommunikativ kompetensiya. – Toshkent: Fan, 2015. – 180 b.
  11. Galskova N. D., Gez N. I. Theory of Foreign Language Teaching. – Moscow: Akademiya, 2004. – 336 p.
  12. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному общению. – Москва: Просвещение, 1991. – 223 с.
  13. Irisqulov T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2009. – 240 b.
  14. Saydaliyev S. Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari (olmon tili misolida). – Namangan, 2019.
  15. Ильева Л. Коммуникативные основы обучения иностранным языкам. – Москва: Просвещение, 2008. – 240 с.
  16. Леонтьев А. А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 2003. – 287 с.
  17. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – Toshkent: Moliya, 2003. – B. 33.
  18. Sattorov T. Bo'lajak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi (ingliz tili materiali asosida). – Toshkent: TDYUI, 2003. – 191 b.